



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **HAYOT FALSAFASINING INSON HAYOTIDA OPTIMIZTIK VA PESSIMISTIK AKS ETISHI**

**Norbo'tayev Islombek Musurmonovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Inson borlig'i azaldan yorug'lik va soya, umid va tushkunlik kabi aksiologik qutblar orasidagi kurash maydonidir. Mazkur tadqiqot mazmuni optimizm va pessimizmni shunchaki kayfiyat darajasida emas, balki hayot falsafasining fundamental paradigmaları sifatida qayta talqin qilishga qaratilgan. Leybnitsning ontologik ishonchi hamda Shopengauerning metafizik tushkunligi o'rtasidagi tafovutlar tahlili orqali inson hayoti mazmunini anglashning oltin o'rtaligi izlanadi. Tadqiqot yakunida har ikki yondashuvning dialektik sintezi hayotning fojiaiy va saodatli jihatlarini yaxlit qabul qiluvchi "falsafiy realizm" kontsepsiyasi ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** Hayot mazmuni, borliq ontologiyasi, aksiologik dikotomiya, ma'rifatli pessimizm, ontologik optimizm, ekzistensial tanlov, dialektik sintez, dunyoqarash strukturasi, iroda erkinligi, metafizik realizm.

## **ОПТИМИСТИЧЕСКОЕ И ПЕССИМИСТИЧЕСКОЕ ОТРАЖЕНИЕ ФИЛОСОФИИ ЖИЗНИ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА**

**Норбутаев Ислонбек Мусурмонович**

Деновский институт предпринимательства и педагогики, доцент (PhD)

### **Аннотация**

Человеческое бытие изначально представляет собой арену борьбы между аксиологическими полюсами: светом и тенью, надеждой и отчаянием. Содержание данного исследования направлено на переосмысление оптимизма и пессимизма не просто как эмоциональных состояний, а как фундаментальных парадигм философии жизни. Через анализ контраста между онтологической уверенностью Лейбница и метафизическим пессимизмом Шопенгауэра предпринимается попытка найти «золотую середину» в понимании смысла человеческой жизни. В завершении выдвигается концепция философского реализма, представляющая собой диалектический синтез обоих подходов, принимающий жизнь во всей полноте её трагических и блаженных проявлений.

**Ключевые слова:** Смысл жизни, онтология бытия, аксиологическая дихотомия, просвещенный пессимизм, оптимизм, экзистенциальный выбор, диалектический синтез, структура мировоззрения, свобода воли, метафизический реализм.

## **THE OPTIMISTIC AND PESSIMISTIC REFLECTION OF THE PHILOSOPHY OF LIFE IN HUMAN LIFE**

**Norbo'tayev Islombek Musurmonovich**

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

Human existence has always been a battlefield between axiological poles: light and shadow, hope and despair. The focus of this study is to redefine optimism and pessimism not merely as moods but as fundamental paradigms of the philosophy of life. By analyzing the contrast between Leibniz's ontological confidence and Schopenhauer's metaphysical pessimism, the research seeks a "golden mean" in understanding the meaning of human life. The study concludes by proposing the concept of philosophical realism a dialectical synthesis of both approaches that embraces life in its entirety, encompassing both its tragic and blissful dimensions.

**Keywords:** Meaning of life, ontology of being, axiological dichotomy, enlightened pessimism, ontological optimism, existential choice, dialectical synthesis, structure of worldview, free will, metaphysical realism.

Insoniyat tafakkurining ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida hayot falsafasining eng murakkab va fundamental muammolaridan biri borliqni anglashning ikki qarama-qarshi qutbi, ya'ni optimizm va pessimizm o'rtasidagi aksiologik ziddiyat bo'lib kelgan. Ushbu ikki tushuncha shunchaki insoniy

hissiyotlar yoki subyektiv kayfiyatlar majmui emas, balki koinot, jamiyat va inson mohiyatini interpretatsiya qilishning strategik metafizik modellari hisoblanadi. Falsafiy tizimlar tarixi shuni ko'rsatadiki, optimizm va pessimizm o'rtasidagi kurash insoniyatning borliqdan ma'no qidirish yo'lidagi intellektual va ma'naviy sa'y-harakatlarining kvintessensiyasidir.

Gnoseologik nuqtai nazardan qaraganda, optimizm borliqning ratsional tuzilishiga, dunyoning mantiqiy tartibiga va yaxshilikning yovuzlik ustidan metafizik g'alabasiga bo'lgan ishonchni ifodalaydi. Bu yondashuv insonni faoliyatga, ijodga va kelajakka umid bilan qarashga undaydi. Aksincha, pessimizm dunyoni fojiaiy, irratsional va azob-uqubatlar maskani sifatida talqin etadi. Pessimistik tafakkur tizimida hayot mazmunsiz harakatlar zanjiri bo'lib, unda quvonch faqat vaqtinchalik illyuziya sifatida namoyon bo'ladi. Akademik Q. Nazarov [1] ushbu aksiologik qarama-qarshilikni tahlil qilar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Insoniyat madaniyati va dunyoqarashi shakllanishida optimizm va pessimizm shunchaki qarashlar emas, balki hayot mazmunini belgilovchi filtrlar vazifasini o'taydi. Bu filtrlar orqali shaxs o'zining ijtimoiy borlig'ini baholaydi va kelajak strategiyasini belgilaydi".

Antik davr falsafasidan boshlab bu ikki oqim o'rtasidagi chegara aniq ko'zga tashlanadi. Platonik idealizm va Arastu teleologiyasi dunyoning maqsadli ekanligini ta'kidlab, optimizmning ilk kurtaklarini yaratgan bo'lsa, kiniklar va ayrim sofistlik maktablar borliqning absurd va mantiqsiz jihatlariga e'tibor qaratib, ilk pessimistik tendensiyalarni boshlab bergan. Biroq bu tushunchalarning klassik falsafiy statusga ko'tarilishi Yangi davr va undan keyingi nemis klassik falsafasi davriga to'g'ri keladi. Optimistik paradigma o'zining eng yuqori nuqtasiga G. V. Leybnits [2] falsafasida erishdi. Uning "Teoditsey" asari dunyoning eng mukammal ekanligini metafizik jihatdan isbotlashga urinish edi. Leybnits nuqtai nazaridan, hatto mavjud bo'lgan yomonlik va fojialar ham umumiy koinot garmoniyasining zaruriy qismidir.

Biroq XIX asrga kelib, Yevropa intellektual muhitida jiddiy burilish yuz berdi. Sanoat inqilobi, ijtimoiy inqirozlar va ratsionalizmning inqirozi umidsizlik falsafasining uyg'onishiga turtki bo'ldi. Bu davrda Artur Shopengauer optimizmni keskin tanqid ostiga olib, borliqning asosida shafqatsiz va ko'r iroda yotishini isbotlashga urindi. Shopengauer uchun optimizm shunchaki xato emas, balki insoniyat fojialari ustidan qilingan jirkanch masxaradir. Uning fikricha, ratsional tafakkur optimizmni rad etishi va hayotning mohiyati azob ekanligini tan olishi kerak. Bu burilish ekzistensializm va nigilizm oqimlarining shakllanishiga asos bo'ldi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).**

Optimizm va pessimizm muammosi falsafa tarixida juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, bu mavzu bo'yicha o'nlab yirik maktablar va yuzlab asarlar shakllanib kelgan. Quyida mavzuga tegishli asosiy adabiyotlar to'rt yo'nalish bo'yicha tahlil qilinadi: klassik falsafiy manbalar, zamonaviy G'arb falsafasi va psixologiyasi, ekzistensial psixologiya va pozitiv psixologiya hamda o'zbek va mintaqaviy tadqiqotlar.

Platon va Arastu asarlarida borliqning maqsadga muvofiqligi ta'kidlanib, optimistik dunyoqarashning ilk nazariy poydevori yaratilgan. Arastu teleologiyasida barcha mavjudotlarning tug'ma imkoniyatlarini amalga oshirishga intilishi optimistik ontologiyaning asosi hisoblanadi. Kiniklar va ayrim sofistlar esa, aksincha, jamiyat va borliqning absurd jihatlarini ko'tarib chiqib, ilk pessimistik tendensiyalarni kuchaytirgan.

Yangi davrda Gottfried Vilgelm Leibniz o'zining "Teoditsey" asarida optimizmni metafizik tizim darajasiga ko'tardi. Leibniz borliqni "barcha mumkin bo'lgan dunyolarning eng yaxshisi" deb e'lon qilib, olamdagi yovuzlik va nomukammalliklarni ham umumiy garmoniyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida asosladi. Ushbu g'oya XVIII asr ma'rifatparvar faylasuflariga kuchli ta'sir ko'rsatdi va Volter "Kandid" asarida keskin hajv qilguniga qadar yetakchi intellektual paradigma bo'lib qoldi.

XIX asrda Artur Shopengauer "Dunyo iroda va tasavvur sifatida" asarida Kant apriorizmini qayta talqin qilib, olamning mohiyatida ko'r-ko'rona va ongsiz iroda yotishini asosladi. Shopengauer uchun hayot azob-uqubatlarning muqarrar zanjiridir: har bir qondirilgan ehtiyoj yangi istakning tug'ilishiga olib keladi. Bu pessimistik metafizika keyinroq Fridrix Nitsche tomonidan "o'ta odam" va "kuch irodasi" g'oyalari orqali qayta ko'rib chiqildi. Nitsche fojiaiylik ichidan ham hayotni kuylash mumkin degan tragik optimizm konsepsiyasini ilgari surdi va Shopengauerning iste'fo etikasini rad etdi.

Viktor Frankl "Inson ma'no izlaydi" asarida kontslager tajribasiga tayanib, logoterapiya nazariyasini yaratdi. Frankl isbotladiki, inson eng og'ir sharoitlarda ham hayotiga ma'no bag'ishlash orqali ruhiy barqarorlikni saqlashi mumkin. Bu konsepsiya tragik optimizm kategoriyasining eng chuqur psixologik asosini tashkil etib, mavzuning asosiy manba-adabiyotlaridan biriga aylangan.

Zigmunt Bauman "Suyuq zamonaviylik" asarida esa postmodern pessimizmni ijtimoiy-strukturaviy kategoriyaga ko'tardi va zamonaviy madaniyatning o'zgaruvchanligini ratsional

optimizmning qulashi bilan bog'ladi.

O'zbek falsafiy adabiyotida optimizm va pessimizm muammosi ko'pincha aksiologiya va dunyoqarash tuzilishi kontekstida o'rganilgan. Q. Nazarovning "Qadriyatlar falsafasi" asari bu sohada fundamental manbalardan bo'lib, aksiologik qarama-qarshilikni ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qiladi. Muallif optimizm va pessimizmni "hayot mazmunini belgilovchi filtrlar" sifatida baholab, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini shakllantirishdagi rolini ochib beradi.

J. Tulenov [3] "Qadriyatlar falsafasi" asarida Leibniz optimizmini jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asosi sifatida baholab, ontologik ishonchni shaxsning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradigan asosiy kognitiv omil deb ta'kidlaydi.

O. M. Abilovning [4] "Optimistik evolyutsiya: tafakkur, ma'naviyat, mafkura" asari mavzuning zamonaviy o'zbek falsafasi kontekstidagi eng yangi tahlillaridan biri hisoblanadi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Mazkur tadqiqot ijtimoiy-falsafiy tahlil metodologiyasiga asoslanib, hayot falsafasidagi optimizm va pessimizmni fundamental paradigmalarda sifatida o'rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot dialektik metod asosida qurilgan: bu falsafiy qutblar bir-birini inkor etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Hegel dialektikasining **tezis-antitezis-sintez** triadasi asosiy strukturaviy qolip vazifasini o'taydi: optimizm va pessimizm o'rtasidagi keskinlik falsafiy realizm konsepsiyasida yechim topadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Hayot falsafasi insonning o'z mavjudligiga bergan bahosi va undan kelib chiquvchi xulq-atvor strategiyalarini o'rganuvchi falsafaning markaziy sohalaridan biridir. "Yashashga arziydimi?" degan savol, A. Kamyu ta'biri bilan aytganda, "falsafaning birdan-bir jiddiy muammosi" hisoblanadi. Bu savolga berilgan javoblar tarixan ikki qutbga ajralgan: optimizm va pessimizm. Optimizm falsafiy kategoriya sifatida o'zining mukammal shakliga XVII-XVIII asrlar ratsionalizmida erishdi. Bu yo'nalishning eng yirik namoyandasi Gotfrid Vilgelm Leybnits [5] borliqni "ilohiy geometriya" asosida qurilgan tizim deb hisoblaydi. Uning "Teoditseya" asari dunyodagi mavjud nomukammalliklar va yovuzlikning mavjudligini mantiqan oqlashga qaratilgan metafizik urinishdir. Leybnitsning argumentatsiyasi shundan iboratki, yovuzlik bu borliqning yo'qligi yoki yetishmovchiligidir. Dunyodagi har qanday fojia umumiy garmoniya uchun xizmat qiladi, xuddi rasmda soya ranglar kontrastini kuchaytirgani kabi. Ushbu g'oya ma'rifatparvarlik davri falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi va insoniyatning progressga bo'lgan ishonchini shakllantirdi. O'zbek faylasufi J. Tulenov qadriyatlar ontologiyasini tahlil qilar ekan, Leybnitscha optimizmni jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asosi sifatida baholaydi va "borliqqa nisbatan bunday ishonch shaxsning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy kognitiv omil" ekanligini ta'kidlaydi.

Optimistik tafakkur kelajakka ishonch, ijobiy natijalarni kutish va hayotdagi ijobiy jihatlarga e'tibor qaratish bilan tavsiflanadi. Pessimistik tafakkur esa salbiy hodisalarni doimiy, keng qamrovli va shaxsiy aybdorlik bilan bog'liq deb baholaydi. Martin Seligman [6] 25 yillik tadqiqotlaridan so'ng bu ikki dunyoqarashni ajratuvchi uch omilni aniqladi: doimiylik, qamrovlilik va shaxsiylashtirish modellari.

Bizning asrimizda, ya'ni XXI asrda, iqlim inqirozi, pandemiyalar va geosiyosiy beqarorlik fonida inson hayotga qanday munosabatda bo'lishi kerak, degan savol sof falsafiy emas, balki amaliy ahamiyat ham kasb etmoqda. Empirik tadqiqotlar optimistlarda stressni yengish qobiliyati yuqoriligi, yurak-qon tomir kasalliklari xavfi pastligi, saraton kasalligida yashab qolish ko'rsatkichi yuqoriligi, hatto umr davomiyligi uzoqligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, "ko'r-ko'rona optimizm" xavfni noto'g'ri baholashga va boshqa odamlarning salbiy his-tuyg'ularini tan olmaslikka olib kelishi ham aniqlangan.

Hayot falsafasining optimistik va pessimistik yondashuvlarini uch jihatdan qiyosiy tahlil qilish mumkin. Birinchidan, ontologik jihatdan borliq tabiatini hamda uning inson dunyoqarashiga ta'sir etish imkoniyatlarini tahlil qilish mumkin. Ikkinchidan, aksiologik jihatdan hayotning qiymati va uning zarurati haqidagi qarashlar o'rganiladi. Uchinchidan, etik jihatdan jamiyatda o'z o'rnini topgan inson qanday hayot kechirishi kerakligi haqidagi qarashlar tahlil qilinadi. Bu tahlillar zamonaviy pozitiv psixologiya ma'lumotlari asosida optimizm va pessimizmning sintez imkoniyatlarini aniqlashda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

#### **Artur Shopengauer va iroda ontologiyasi: Borliqning fojiviy mohiyati**

Falsafiy pessimizm tizimli xarakterga ega bo'lishi XIX asrda Artur Shopengauer nomi bilan bog'liq. Mutafakkir o'zining fundamental asari "Dunyo iroda va tasavvur sifatida" kitobida [7] I. Kantning "narsa o'zida" konsepsiyasini o'ziga xos tarzda interpretatsiya qilib, olamning mohiyatini ko'r-ko'rona va maqsadsiz iroda deb ta'riflaydi. Shopengauer talqinida iroda bu to'yamaydigan, ongsiz va mutlaq intilishdir.

U tabiatning barcha pog‘onalarida, xususan, insonda “yashashga iroda” ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu metafizik kuch insonni doimiy ehtiyojlar quliga aylantiradi va har bir qondirilgan ehtiyoj yangi bir iztirobning boshlanishidir. Binobarin, hayot bu doimiy intilish va muqarrar qoniqmaslikdan iborat azob-uqubatlar zanjiridir.

Shopengauer ushbu ekzistensial tushkunlikdan chiqish yo‘li sifatida Sharq falsafasi, xususan, “Maya pardasi”ni yirtish orqali dunyo yaxlitligini anglashni taklif etadi. Inson o‘zini alohida individ emas, balki butun borliq bilan bir butun deb his qilsa, unda individual irodadan voz kechish imkoniyati tug‘iladi. Bu jarayonning axloqiy asosi rahm-shafqat bo‘lib, u boshqa mavjudotning azobini o‘z azobidek his qilish orqali irodani inkor etishni boshlab beradi. Ushbu radikal pessimizm zamonaviy davrda Devid Benatar tomonidan davom ettirildi. Benatarning “Hech qachon bo‘lmagan yaxshi” asarida asimmetriya argumenti ilgari suriladi, ya‘ni tug‘ilish har doim zarar, chunki yashash kafolatlangan azobni anglatadi, lazzat esa faqatgina tasodifiy va vaqtinchalik xarakterga ega ekanligi ochib berilgan.

O‘rganilgan optimizm haqida nazariy fikr shakllantirgan Seligman keyin shunday savol bilan murojaat qiladi: “Agar nochorlikka o‘rganib qolishga inson moyil bo‘lsa, demak, optimizmga ham o‘rganib qolish mumkinmi?”. Seligman bu savolga “ha” deb javob beradi va ikki holatning ham inson irodasi va psixologiyasiga taalluqli ekanligini tushuntiradi. Aslida o‘rganilgan optimizm bu voqealarga boshqacha qarashni o‘rganishdir. Ya‘ni yomon vaziyatga tushganda uni “doimiy, umumiy, shaxsiy” deb emas, balki “vaqtincha, aniq, tashqi sababli” deb tushuntirishdir. Bundan kelib chiqadiki, optimist muvaffaqiyatsizlikni “vaqtincha va faqat shu holatga tegishli” deb qabul qiladi. Shuning uchun qayta urinadi va o‘zini qurshab turgan jamiyatga moslashadi.

Bu ikki konsepsiyaning muhimligi shundaki, odam qanday fikrlashi uning kayfiyati, sog‘lig‘i, ishda va hayotda erishadigan natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi. Nochorlik depressiya, tushkunlik va kasallikka olib keladi hamda muvaffaqiyatsizlikning asosiy manbasi ham shu. Optimizmni o‘rganish esa stressga chidamlilikni oshiradi, motivatsiya beradi, hatto immun tizimini kuchaytiradi va eng yaxshi tomoni, optimizm tug‘ma xarakter emas, balki orttiriladigan iroda kuchi hisoblanadi. Optimizm bu mashq qilish mumkin bo‘lgan ko‘nikma kabi bo‘ladi. Seligman maktabi odamlarga shuni o‘rgatadi: “Taqdiringiz sizning qo‘lingizda emas”, degan fikrning o‘zi insonni harakatsizlikka chorlaydi. Demak, “harakat qilsam, vaziyatni o‘zgartira olaman”, degan fikrni kundalik hayotga joriy etish muhim hisoblanadi.

### **Akseologik talqinda optimizm va pessimizm**

Aksiologik talqinga ko‘ra optimistik jihatni talqin qilar ekanmiz, avvalo hayot so‘zsiz qiymat ekanligini tushunamiz. Yashash esa uning eng qimmatli va eng katta ne‘mati hisoblanadi. Leybnits uchun mavjudlikning o‘zi yo‘qlikdan yaxshiroq hisoblanadi, chunki mavjudlik kurash va yashash mexanizmini shakllantiradi. Hatto hayotning azob-uqubati ham inson hayotida yuksak yaxshilikka yetaklasa, optimistik jihatdan u oqlanadi. Shuning uchun barcha dinlarning teoditseyasida azob va uqubat oxir-oqibat gunohlar kafforati, sinov, ruhiy kamolot yo‘li ekanligi aqida darajasiga ko‘tarilgan.

Aksiologiyaning pessimistik talqiniga ko‘ra hayotning qiymati katta ahamiyatga ega emas. Janubiy afrikalik faylasuf Devid Benatar [8] o‘zining “Hech qachon bo‘lmagan yaxshi: Mavjudlikka kelishning zarari” nomli asarida tug‘ilish har doim zarar ekanligini mantiqiy assimetriya orqali isbotlashga harakat qilgan. Uning argumenti to‘rtta asosiy holatning o‘zaro nisbatiga tayanadi. Birinchidan, azobning mavjudligi bu mutlaq yomon holatdir. Azobning mavjud bo‘lishi shaxs mavjudligi bilan uzviy bog‘lanib talqin etiladi. Ikkinchidan, lazzatning mavjudligi esa mutlaq yaxshi holatdir. Shaxs mavjudligida lazzat tabiiy jarayon sifatida talqin etiladi. Uchinchidan, azobning yo‘qligi bilan izohlanadi. Hatto bu holatni his qiluvchi subyekt bo‘lmasa ham, bu ijobiy holatdir deb tushuniladi. To‘rtinchidan, lazzatning yo‘qligi bu faqat o‘sha lazzatdan mahrum bo‘ladigan shaxs mavjud bo‘lgandagina yomon deb baholanadi. Agar shaxs dunyoga kelmasa, u lazzatning yo‘qligidan aziyat chekmaydi, binobarin, bu holatni yomon emas deb hisoblash mumkin. Ushbu nazariyani muxtasar tahlil qiladigan bo‘lsak, faylasufning fikriga ko‘ra tug‘ilmaslik subyektni barcha ehtimoliy azoblardan qutqaradi, lekin uni hech qanday lazzatdan mahrum qilmaydi. Chunki mavjud bo‘lmagan shaxsda mahrumlik hissi bo‘lmaydi.

Etik jihatdan olib qaraladigan bo‘lsa, “qanday yashash kerak?” degan savolga optimistik etika faollik, kurash va dunyoni o‘zgartirish deb qaraydi. Agar dunyo eng yaxshi bo‘lsa, uni saqlash va yaxshilash burchdir. Leybnits hayot qiymati haqida: “Biz Xudoning rejasi amalga oshishiga yordam berishimiz kerak”, deb fikr yuritgan. Zamonaviy optimizm esa yechimga yo‘naltirilgan fikrlash tizimi bo‘lib, muammoni yechim izlash uchun imkoniyat sifatida baholaydi.

Pessimistik etika jihatidan esa iste‘fo, rahm-shafqat va asketizmida namoyon bo‘ladi. Agar hayot azob bo‘lsa, yangi azob tug‘dirmaslik asosiy hayotiy prinsip bo‘lishi kerak. Shopengauerning qarashlarida

estetik mushohada san'at orqali irodadan vaqtincha qutulish deb hisoblanadi. Kishi axloqiy yo'l bilan rahm-shafqat orqali boshqa mavjudotlarda o'zini ko'rishi, irodani mustahkamlashga bo'lgan layoqati ortib borishini ta'kidlagan.

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Hayot falsafasining optimistik va pessimistik paradigmalari bo'yicha olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar bizga quyidagi fundamental xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, optimizm va pessimizm shunchaki subyektiv emotsional holatlar emas, balki borliqni anglashning ikki xil ontologik modelidir. G.V. Leybnits asos solgan ratsionalistik optimizm dunyoning mantiqiy tartibiga ishonchni ifodalasa, A. Shopengauerning metafizik pessimizmi borliqning irratsional va fojiviy mohiyatini ochib beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu ikki qutb insoniyat tafakkurida bir-birini inkor etuvchi emas, balki dialektik to'ldiruvchi funksiyani bajaradi.

Ikkinchidan, zamonaviy raqamli madaniyat va global xatarlar davrida an'anaviy optimizm va pessimizm tushunchalari transformatsiyaga uchradi. Texno-optimizm insoniyatning texnologik najotiga umid bog'lasa, kiberpessimizm dehumanizatsiya xavfidan ogohlantiradi. Ushbu sharoitda V. Frankl va F. Nitsche [10] tomonidan ilgari surilgan "tragik optimizm" g'oyasi eng maqbul ekzistensial yechim sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, hayotning qiyinchiliklarini tan olgan holda (pessimistik realizm), unda ma'no va ijodiy quvvat topish (optimistik iroda) shaxs barqarorligining garovidir.

Uchinchidan, milliy va global qadriyatlar sintezi shuni tasdiqlaydiki, optimizm ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, pessimizm esa uning tanqidiy-tahliliy nazoratchisidir. Maqolada taklif etilgan "Falsafiy realizm" modeli ushbu ikki qutbning oltin o'rtaligini topishni nazarda tutadi. Bu model zamonaviy insonni asossiz eyforiyadan ham, ma'naviy falajlikka olib keluvchi tushkunlikdan ham himoya qiladi.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, hayot falsafasi insoniyatni dunyoni faqat oq yoki qora ranglarda ko'rishga emas, balki borliqning butun murakkabligi va ziddiyatlarini yaxlit qabul qilib, unga nisbatan mas'uliyatli va ma'noli munosabatni shakllantirishga o'rgatishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2004. – 128 b.
2. Otamurodov S. Globallashuv: milliy ma'naviyatga tahdid va imkoniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 210 b.
3. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 160 b.
4. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2010. – 256 b.
5. Qahhorova M. Etika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. – 280 b.
6. Abilov O'.M. Optimistik evolyusiya: tafakkur, ma'naviyat, mafkura. – Toshkent: Fan ziyosi, 2023. – 256 b.
7. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 240 p.
8. Camus A. The Myth of Sisyphus and Other Essays. – New York: Vintage Books, 1991. – 192 p.
9. Frankl V.E. Man's Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006. – 165 p.
10. Harari Y.N. 21 Lessons for the 21st Century. – London: Jonathan Cape, 2018. – 432 p.
11. Leibniz G.W. Theodicy: Essays on the Goodness of God, the Freedom of Man and the Origin of Evil. – La Salle: Open Court, 1985. – 448 p.
12. Nietzsche F. Thus Spoke Zarathustra: A Book for All and None. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 320 p.
13. Schopenhauer A. The World as Will and Representation. Vol. I–II. – New York: Dover Publications, 1969.
14. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 264 p.
15. Benatar D. Better Never to Have Been: The Harm of Coming into Existence. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – P. 30–40.
16. Seligman M.E.P. 3 Factors That Separate Optimists and Pessimists // Psychology Today. – 2021.